

YUNESKONing xalqaro savodxonlik mukofoti



YUNESKONing “Savodxonlik ta’limi: muallimlarning o’rni va pedagogikaning o’zgarishi” mavzusiga bag’ishlangan Savodxonlik sohasidagi Xalqaro mukofoti e’lon qilingan bo’lib, ushbu tanlov quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- Qirol Sejong nomidagi Koreya Respublikasi tomonidan moliyalashtiriladigan “Ona tili savodxonligini rivojlantirish”ga hissa qo’shgan nomzodlarni taqdirlashga qaratilgan YUNESKO mukofoti;
- Konfutsiy nomidagi Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan moliyalashtiriladigan “Qishloq hududlaridagi katta yoshlilar va xotin-qizlar savodxonligini oshirish”ga hissa qo’shgan nomzodlarni taqdirlashga qaratilgan YUNESKO mukofoti.

Tanlov shartlariga ko’ra, Qirol Sejong nomidagi mukofot ikki nafar nomzodga hamda Konfutsiy nomidagi mukofot uch nafar nomzodga taqdim etiladi. Tanlovda g’olib chiqqan nomzodlar maxsus medal, diplom va 20 000 AQSh dollari miqdoridagi mablag’ bilan mukofotlanadilar.

Batafsil ma’lumotni quyidagi havola orqali olishingiz mumkin: <https://en.unesco.org/themes/literacy/prizes>

Ushbu savodxonlik tanlovida ishtirok etish uchun nomzodlar www.unesco.org/ilp/account veb-sahifasidan o’tishlari kerak. Ro’yxatdan o’tgandan so’ng veb-sahifadagi maxsus shakl nomzodlar tomonidan onlayn tarzda to’ldirilishi zarur.

Anketalar joriy yilning 28 iyuniga qadar qabul qilinadi. Nomzodlar tomonidan to’ldirilgan anketalarning elektron shakli (Pdf) YUNESKO ishlari bo’yicha O’zbekiston Milliy komissiyasining quyidagi elektron manziliga yuborishi kerak: unesconatcom@umail.uz